



UDK: 801.85:97.21

Manzura KURBANIAZOVA,
O'qituvchi, Termiz davlat pedagogika instituti
E-mail: kurbaniyazovamanzura4@gmail.com

PhD N.Madalov taqrizi asosida

INGLIZ VA QORAQALPOQ ADABIY TAFAKKURIDA GASTRONOMIK KONSEPTLARING VERBAL IFODASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz va qoraqalpoq adabiy tafakkurida gastronomik konseptlarning verbal ifodasi kognitiv, semantik va lingvomadaniy yondashuv asosida keng qamrovda tahlil qilinadi. Tadqiqotda oziq-ovqatga oid birliklarning metaforik modellari, assotsiativ maydonlari va semantik transformatsiyalari qiyosiy aspektida o'rganildi. Natijalar gastronomik konseptlarning inson tajribasiga asoslangan holda abstrakt tushunchalarni konseptualashtirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Har ikki til madaniyatida umumiy universal modellarning mavjudligi bilan birga, milliy o'ziga xosliklar ham aniqlangan.

Kalit so'zlar: gastronomik konsept, metafora, kognitiv model, lingvomadaniyat, verbalizatsiya, semantik transformatsiya.

ВЕРБАЛЬНОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ГАСТРОНОМИЧЕСКИХ КОНЦЕПТОВ В АНГЛИЙСКОЙ И КАРАКАЛПАКСКОЙ ЛИТЕРАТУРНОЙ КАРТИНЕ МЫШЛЕНИЯ

Аннотация

В данной статье проводится всесторонний анализ вербального выражения гастрономических концепций в английской и каракалпакской литературной мысли на основе когнитивного, семантического и лингвокультурного подходов. В сравнительном аспекте исследования изучались метафорические модели, ассоциативные поля и семантические трансформации единиц, связанных с едой. Результаты показали, что гастрономические концепции играют важную роль в концептуализации абстрактных понятий на основе человеческого опыта. Наряду с существованием общих универсальных моделей в обеих языковых культурах, были также выявлены национальные особенности.

Ключевые слова: гастрономическая концепция, метафора, когнитивная модель, лингвокультура, вербализация, семантическая трансформация.

VERBAL REPRESENTATION OF GASTRONOMIC CONCEPTS IN THE ENGLISH AND KARAKALPAK LITERARY WORLDVIEW

Annotation

This article comprehensively analyzes the verbal expression of gastronomic concepts in English and Karakalpak literary thought based on cognitive, semantic and linguocultural approaches. The study studied metaphorical models, associative fields and semantic transformations of food-related units in a comparative aspect. The results showed that gastronomic concepts play an important role in the conceptualization of abstract concepts based on human experience. Along with the existence of common universal models in both language cultures, national specificities were also identified.

Keywords: gastronomic concept, metaphor, cognitive model, linguocultural, verbalization, semantic transformation.

Kirish. Til va tafakkur o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish zamonaviy tilshunoslikning markaziy yo'nalishlaridan biridir. Ayniqsa, konsept tushunchasi orqali inson ongidagi bilimlarning qanday tashkil topishi va til orqali qanday ifodalanishi masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. George Lakoff va Mark Johnson tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv metafora nazariyasiga ko'ra, inson tafakkuri tanaviy tajriba asosida shakllanadi va abstrakt tushunchalar konkret tajribalar orqali anglanadi. Oziq-ovqat esa inson hayotidagi eng asosiy tajribalardan biri bo'lib, u orqali ko'plab murakkab tushunchalar konseptualashtiriladi. Anna Wierzbicka gastronomik birliklarni milliy madaniyatning semantik yadrosi sifatida ko'rib, ularni "madaniy kalit so'zlar" deb ta'riflaydi. Shu bois gastronomik konseptlar nafaqat til birliklari, balki madaniy kod sifatida ham namoyon bo'ladi. Ingliz va qoraqalpoq tillarining qiyosiy tahlili esa bu konseptlarning universalligi va milliy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Gastronomik konseptlar masalasi zamonaviy tilshunoslikning eng keng o'rganiladigan sohalaridan biri bo'lib, til, tafakkur, madaniyat va insonning konseptual dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liq. Bu masala turli nazariy yondashuvlar asosida talqin

qilingan va muhim ilmiy qarashlar, xususan, kognitiv tilshunoslik, madaniy semantika, metafora nazariyasi va tasniflash nazariyasi doirasida paydo bo'lgan. Kognitiv metafora nazariyotchilari Jorj Lakoff va Mark Jonson metaforani nafaqat badiiy ifoda vositasi sifatida, balki inson tafakkurining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida ham talqin qilishadi. Ularning fikriga ko'ra, odamlar ko'pincha mavhum tushunchalarni kundalik tajriba orqali tushunadilar va ifodalaydilar. Shuning uchun ta'm, ovqat, ochlik, shirinlik yoki achchiqlik kabi gastronomik birliklar hissiy holatlar, inson xarakteri va ijtimoiy munosabatlarni ifodalash uchun faol qo'llaniladi. Masalan, "hayotning shirinligi", "achchiq haqiqat" va "sevgidan qoniqish" kabi tushunchalar gastronomik tushunchalarning metaforik tafakkurda muhim o'rnini ko'rsatadi[4].

Madaniy semantika sohasida Anna Verzbicka gastronomik tushunchalarni milliy mentalitet, qadriyatlar va turmush tarzining muhim tarkibiy qismi sifatida baholaydi. Uning fikricha, oziq-ovqat nomlari nafaqat moddiy ehtiyojlarni bildiruvchi birlik, balki milliy madaniyatni aks ettiruvchi madaniy kod sifatida ham xizmat qiladi. U turli mamlakatlarda milliy o'ziga xoslik belgisi sifatida muayyan taomlar yoki

mahsulotlarning rivojlanishini ta'kidlaydi va gastronomik birliklar odamlarning tarixiy tajribasi, an'analari va dunyoqarashini aks ettirishini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan gastronomik tushunchalar lingvistik va madaniy tadqiqotlarning muhim obyektiga aylandi[9].

Metafora va madaniyat o'rtasidagi munosabatni o'rgangan Zoltan Köveçses metaforalarning universalligini, shuningdek, ularning milliy va madaniy xususiyatlarini ta'kidlaydi. Olimning fikriga ko'ra, har bir millatning oziq-ovqat bilan bog'liq g'oyalari, qadriyatları va kundalik tajribalari metaforalarning shakllanishiga ta'sir qiladi. Natijada, bir madaniyatda ijobiy ma'noni ifodalovchi ba'zi gastronomik tasvirlar boshqasida salbiy yoki neytral kontekstda ishlatilishi mumkin. Zoltan Köveçses metaforalar va madaniy kontekst o'rtasidagi yaqin bog'liqlikni namoyish etadi, gastronomik tushunchalarni qiyosiy va lingvistik-madaniy nuqtai nazardan o'rganish zarurligini asoslaydi[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola ingliz va qoraqalpoq adabiy tafakkurida gastronomik konseptlarning verbal ifodalanish va tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy asoslar, material tanlash mezonlari, tahlil bosqichlari va qo'llanilgan lingvistik metodlar tizimidan iborat.

1. Tadqiqot dizayni va yondashuv. Tadqiqot sifat (qualitative) va qiyosiy (comparative) dizaynga asoslanadi. Asosiy e'tibor gastronomik konseptlarning: verbal ifodalalanish shakllari, semantik strukturalari, metaforik modellari, lingvomadaniy funksiyalarini aniqlashga qaratildi. Nazariy asos sifatida kognitiv tilshunoslik paradigmasi tanlandi. Xususan, George Lakoff va Mark Johnson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi tadqiqotning asosiy metodologik poydevorini tashkil etdi. Ushbu nazariyaga ko'ra, til birliklari insonning tanaviy tajribasiga asoslangan holda konseptuallashtiriladi. Shuningdek, Zoltan Köveçsesning madaniy metafora yondashuvi gastronomik konseptlarning madaniy-spesifik xususiyatlarini izohlashda qo'llanildi.

2. Tadqiqot materiali va tanlash mezonlari. Tadqiqot materiali sifatida ingliz va qoraqalpoq adabiy matnlari tanlab olindi. Tanlash quyidagi mezonlarga asoslandi:

Ingliz adabiyotida William Shakespeare asarlari (XVI–XVII asr klassik dramatik matnlar), Charles Dickens romanlari (XIX asr realizm adabiyoti). Qoraqalpoq adabiyotida esa, Tulepbergen Qayipbergenov – Qoraqalpoqnoma (2019 nashr) aasari.

3. Tahlil bosqichlari. Tadqiqot bir necha ketma-ket bosqichlarda amalga oshirildi:

1-bosqich: Identifikatsiya. Matnlardan gastronomik birliklar ajratib olindi: ta'mga oid birliklar (sweet, bitter - achchiq, sho'r), oziq-ovqat nomlari (bread, soup - non, sho'rva) jarayonlar (cooking, boiling – pishirish, qaynatish);

2-bosqich: Klassifikatsiya. Aniqlangan birliklar quyidagi 4 guruhga ajratildi:

emotsional metaforalar

ijtimoiy konseptlar

axloqiy baholash birliklari

kognitiv modellarga oid birliklar

3-bosqich: Semantik tahlil. Har bir birlikning: denotativ (asosiy) ma'nosi, konnotativ (ko'chma) ma'nosi va kontekstual funksiyasi aniqlandi.

4-bosqich: Metaforik model aniqlash. Birliklar quyidagi konseptual modellarga ajratildi: hissiyot - ta'm, hayot - ovqat, ijtimoiy rol – non (bread)

5-bosqich: Qiyosiy tahlil. Ingliz va qoraqalpoq materiallari o'zaro o'xshashliklari, farqlari madaniy spesifiklik nuqtai nazardan solishtirildi.

4. Qo'llanilgan metodlar. Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar kompleks qo'llanildi:

1. Kognitiv-semantik tahlil. Bu metod orqali gastronomik birliklarning konseptual mazmuni aniqlanib, ularning ongda modeli rekonstruksiya qilindi.

2. Qiyosiy (komparativ) metod. Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi birliklar o'zaro solishtirilib, umumiy va farqli jihatlar aniqlanadi.

3. Kontekstual tahlil. Har bir metaforaning ma'nosi u qo'llangan kontekst asosida talqin qilindi.

4. Lingvomadaniy tahlil. Gastronomik konseptlarning madaniy funksiyasi va milliy xususiyatlari o'rganildi.

5. Freym tahlili. Charles Fillmore nazariyasiga asoslanib, "food frame" strukturalari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Tahlil natijasida quyidagi asosiy metaforik modellari aniqlandi: hissiyot - ta'm, hayot – ovqat, inson - iste'molchi, jamoat – dasturxon. Ingliz tilida: "Parting is such sweet sorrow" [6]. Bu yerda "sweet" ijobiy va salbiy hissiyotlarning sintezini ifodalaydi. Qoraqalpoq tilida esa "Achchiq haqiqat yurakni tiladi" [7]. Bu yerda "achchiq" salbiy emotsiyani bildiradi. Ingliz tilida: "He earns his bread" [5]. Qoraqalpoq tilida: "Non topib keluvchi inson". Bu yerda "bread/non" hayotiy zaruratni bildiradi. Ingliz tilida: "Too many cooks spoil the broth." [9]. Qoraqalpoq tilida: "Ko'p oshpaz ovqatni buzadi".

Mazkur tadqiqot natijalari ingliz va qoraqalpoq adabiy tafakkurida gastronomik konseptlarning nafaqat lingvistik birlik sifatida, balki kognitiv va madaniy fenomen sifatida ham faol amal qilishini ko'rsatdi. Olingan ma'lumotlar bir nechta muhim nazariy jihatlarini aniqlashtirish imkonini beradi.

Aniqlangan metaforik modellarning (hissiyot - ta'm, hayot - ovqat, inson - iste'molchi) mavjudligi George Lakoff va Mark Johnson tomonidan ilgari surilgan konseptual metafora nazariyasini empirik jihatdan tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, insonning fiziologik tajribasi - ayniqsa, ovqatlanish va ta'm sezish - abstrakt kategoriyalarni anglashda asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Masalan, ingliz tilidagi "sweet sorrow" yoki qoraqalpoq tilidagi "achchiq haqiqat" birliklari hissiy holatlarni ta'm orqali konseptuallashtirishning aniq namunasi. Qiyosiy tahlil natijalari gastronomik konseptlarning qisman universal, qisman madaniy-spesifik xarakteriga ega ekanligini ko'rsatdi. Bu jihat Zoltan Köveçses tomonidan ilgari surilgan metaforalarning madaniy modifikatsiyasi haqidagi nazariy qarashlarga mos keladi. Xususan, "bread/non" konsepti har ikkala til madaniyatida asosiy hayotiy resursni ifodalovchi markaziy semantik birlik sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa gastronomik konseptlarning antropotsentrik asosga ega ekanligini bildiradi. Biroq, universallik bilan bir qatorda sezilarli farqlar ham kuzatildi. Ingliz adabiy tafakkurida gastronomik metaforalar ko'proq abstraktlashtirilgan va stilistik jihatdan boy shaklda qo'llanadi. Masalan, "butter someone up", "spill the beans" kabi iboralar semantik jihatdan kengaygan va ko'p qatlamli ma'no hosil qiladi. Qoraqalpoq tilida esa gastronomik birliklar ko'proq real hayotiy tajribaga yaqin, ijtimoiy va axloqiy baholashga yo'naltirilgan bo'lib, ularning semantik doirasi nisbatan barqarorroq va konkretdir[2].

Shuningdek, tadqiqot natijalari gastronomik konseptlarning vaqt o'tishi bilan semantik kengayish va transformatsiyaga uchrashini ham ko'rsatdi. Ingliz tilida ko'plab gastronomik iboralar idiomatiklashgan bo'lsa, qoraqalpoq tilida ular ko'proq milliy madaniyat bilan bevosita bog'liq holda saqlanib qolgan. Natijalarni umumlashtirib aytganda, gastronomik konseptlar inson tafakkurining universal modeli sifatida namoyon bo'lishi bilan birga, har bir til va madaniyatda o'ziga xos semantik va funksional xususiyatlarga

ega. Bu esa ularni kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyat tadqiqotlari uchun muhim obyektga aylantiradi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot ingliz va qoraqalpoq adabiy tafakkurida gastronomik konseptlarning verbal ifodasini kognitiv, semantik va lingvomadaniy yondashuv asosida kompleks tahlil qilishga qaratildi. Olingan natijalar gastronomik birliklarning til tizimidagi o'rni faqat leksik daraja bilan cheklanib qolmasdan, balki chuqur konseptual va madaniy qatlamlarga ega ekanligini ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot ingliz va qoraqalpoq adabiy tafakkuridagi gastronomik tushunchalarning universal va milliy xususiyatlarini chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ikkala madaniyatdagi gastronomik birliklar nafaqat ovqatni ifodalashning nominativ vositasi sifatida, balki insonning hissiy holati, ijtimoiy munosabatlari, qadriyatlarini va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim konseptual tizim sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, gastronomik tasvirlar muhim kognitiv vosita bo'lib, til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ingliz adabiy tafakkurida gastronomik tushunchalar ko'proq mavhum tushunchalarni ifodalash va ularning universal kognitiv modellar bilan bog'liqligini ifodalash uchun metaforik vosita sifatida faol qo'llaniladi, qoraqalpoq adabiy tafakkurida esa ular milliy urf-odatlar, an'anaviy turmush tarzi, mehmondo'stlik madaniyati va milliy o'ziga xoslikni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Bu shuni ko'rsatadiki, gastronomik tushunchalar, bir tomondan, universal kognitiv asosga ega, ikkinchi tomondan, ular har bir xalqning madaniy tajribasi va tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq holda o'ziga xos semantik xilma-xillikka ega bo'ladi.

Umuman olganda, tadqiqot ingliz va qoraqalpoq adabiy matnlarida gastronomik tushunchalardan foydalanishni qiyosiy tahlil qilish orqali ularning milliy-madaniy o'ziga xoslikni universal kognitiv mexanizmlar bilan birga ifodalashini aniqladi va bu tushunchalar til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni aks ettiruvchi muhim lingvokognitiv hodisa ekanligini ko'rsatdi.

ADABIYOTLAR

1. Dickens C. *A Tale of Two Cities*. – London, 1859. – 120 p.
2. Fillmore C. *Frame Semantics*. *Linguistics in the Morning Calm*, 1982. – 117 p.
3. Kövecses Z. *Metaphor in Culture*. – Cambridge, 2005. – 314 p.
4. Lakoff G., & Johnson M. *“Metaphors We Live By”*. Chicago: University of Chicago Press, 1980.
5. *Oxford Dictionary of Proverbs*. – Oxford, 2010. – P.245.
6. Qayipbergenov T. *Qoraqalpoqnoma*. – Toshkent: Sharq, 2019. – 102 b.
7. Radjapovna K. M. XX-XXI asr ingliz adabiyotida metaforalarning funksional xususiyatlari. *Zamonaviy ilm-fan va tadqiqotlar: muammo va yechimlar*, 3(1), 2026. – B. 70-72.
8. Shakespeare W. *Romeo and Juliet*. – London, 1597.
9. Wierzbicka A. *“Understanding Cultures Through Their Key Words”*. Oxford, 1997.